

“BEZORI” HIKOYASIDA SHAXS FOJIASI TASVIRI***Toshpo‘latova Dilchehra Azamat qizi****Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**E-mail: dilchehratoshpolatova9904@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abduqayum Yo‘ldoshevning “Bezori” hikoyasi badiiy adabiyotdagi fojiaviylik tasviri, obraz yaratishdagi mahorati, hikoyada tasvirlangan ijtimoiy muhitning obraz tabiati bilan munosabati reallikka asoslanib tasvirlangan. Muallif “Bezori” hikoyasi sarlavhasini qo‘shirnoq ichida beradi. Bu shartlilikni, o‘zaro kinoyaviylikni anglatish uchun xizmat qiladi. Aslida, “bezori” bezori emas, muhitning qurboniga aylanganligini hikoya bilan to‘liq tanishish orqali anglay boshlaymiz. Asarda bugun atrofimizda uchraydigan, zavodda usta bo‘lib ishlaydigan yigitning hayotidan hikoya qilingan bir kunlik voqea orqali shaxs fojiasi ochib beriladi.

Kalit so‘z: Fojiaviy tasviri, badiiy portret, ma‘naviy kemtiklik, semiotik kalit, badiiy haqiqat, fojiaviy qismat, psixolog holat, badiiy detal, asar organizmi, hikoya pozitsiyasi, poetik reallik, ruhiy kechinma, hikoya sarlavhasi, badiiy niyat, ijtimoiy munosabat, asar to‘qimasi.

Аннотация: В данной статье произведение Абдукаюма Ёлдошева «Безори» рассматривается с точки зрения художественного изображения трагичности, мастерства создания образов, а также связи между художественным образом социального окружения и реальностью. Автор заключает название рассказа «Безори» в кавычки, что служит выражением условности и ироничности. На самом деле, «хулиган» не является таковым в подлинном смысле, а становится жертвой среды, что становится понятно по мере ознакомления с рассказом. В произведении через описание одного дня из жизни молодого человека, работающего мастером на заводе, раскрывается личная трагедия героя — типичного представителя нашего времени.

Ключевые слова: Трагическое изображение, художественный портрет, духовный дефицит, семиотический ключ, художественная истина, трагическая судьба, психологическое состояние, художественная деталь, структура произведения, позиция рассказчика, поэтическая реальность, душевные переживания, заглавие рассказа, художественное намерение, социальные отношения, ткань произведения.

Annotation: This article examines Abduqayum Yo‘ldoshev’s short story “Bezori” in the context of the depiction of tragedy in literature, the author’s skill in creating characters, and how the social environment described in the story is artistically connected to reality. The author places the title “Bezori” in quotation

marks, which serves to convey a sense of irony and conditionality. In fact, the “hooligan” is not a true troublemaker but rather a victim of his environment — a realization that becomes clear as the story unfolds. Through the narrative of a single day in the life of a young man working as a factory master, the story reveals the personal tragedy of an individual — a figure reflective of contemporary society.

Keywords: Tragic depiction, artistic portrait, moral deficiency, semiotic key, artistic truth, tragic fate, psychological state, artistic detail, structure of the work, narrative position, poetic reality, emotional experience, story title, artistic intention, social relations, narrative fabric.

Adabiyot soʻz kuchiga tayangan sanʼat turi ekanligiga asoslanib ayta olamizki, asarda tasvirlangan har bir detal, epizod, voqea, manzara, obraz va tasvir vositalari yozuvchining badiiy niyatiga xizmat qiladi. Asar organizmida muallif foydasiga xizmat qilmaydigan birorta organ uchramaydi. Ularning oʻrnini almashtirish, olib tashlash yoxud yangi narsa kiritish mumkin emas. Agar shunday qilinsa, asar toʻqimasi buziladi, badiiylikka ziyon yetadi. Abduqayum Yoʻldoshev ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning qator hikoyalari oʻz maqsadiga yeta olmagan omadsiz shaxslarning fojiaiy tasviriga guvoh boʻlamiz. Ijodkor fojiaiylikni ochib berishda badiiy portret va detaldan unumli foydalanadi. Buni yozuvchining “Bezori” hikoyasi misolida tadqiq etamiz.

Adabiyotshunos A.Rasulov aytganidek, badiiy asarning nomi – semiotik kalit. Kalit esa asar mohiyati, bogʻliqligini belgilovchi konsepsiyaning aniq, loʻnda ifodasidir. Muallif “Bezori” hikoyasi sarlavhasini qoʻshtirnoq ichida beradi. Bu shartlilikni, oʻzaro kinoyaviylikni anglatish uchun xizmat qiladi. Aslida, “bezori” bezori emas, muhitning qurboniga aylanganligini hikoya bilan toʻliq tanishish orqali anglay boshlaymiz. Asarda bugun atrofimizda uchraydigan, zavodda usta boʻlib ishlaydigan yigitning hayotidan hikoya qilingan bir kunlik voqea orqali shaxs fojiasi ochib beriladi. Barcha voqea asar qahramoni Noʻmonjonning ish joyidan Yangi yil archasi uchun chipta berilishidan boshlanadi. Moddiy jihatdan qiyinchilikka uchragan, faqat oylik maosh bilan kun kechiruvchi oila uchun tekinga kelgan chipta katta xursandchilik olib keladi: *“Ish, ish” deb yuraverar ekan. Noʻmonjon bugun bir yayradi. Hammasiga Yangi yil archasiga ishxonadan berilgan chipta sabab boʻldi. Noʻmonjon oʻziyam kun boʻyi kasaba qoʻmitasi raisasi Salima Abdubakirovani alqab, unga gʻoyibona rahmat aytib yurdi. Boʻlarkan-ku, odamga oʻxshab dam olsa. Buning ustiga jajji qizalogʻi Mehrinisaning tugʻilgan kuni edi. Ishqilib, qoʻshaloq bayram boʻldi*¹.

¹Yoʻldoshev A. Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. Yangi asr avlodi, 2021. B.68

Atrofida gilar tomonidan ko'rsatilgan kichik e'tibor, bu orqali qizini xursand qilishni o'ylagan ota obrazi yozuvchi tomonidan mukammal chiziladi. Muallif qahramon ruhiyatidagi ko'tarinki kayfiyatni boshqa o'rinlarda ham bir necha bor tasvirlaydi. Biroq ota ko'nglidagi kemtiklik, qo'likaltalik uni har qadamda ta'qib etadi. Qizchani xursand qilish uchun biror o'yinchoq olib beraman, deganda Mehrinisoning o'zini nariga tortib dadasini chalg'itishga harakat qilishlari, uyida kunora pul sabab bo'lib turadigan janjallarni esga soladi.

Inson og'ir psixologik holatlarda ko'ziga ko'ringan har qanday narsadan, qulog'iga eshitilgan har qanday ovozdan o'zining dardini eslatadigan biror narsa axtarsa kerak. Tabiiyki, bularning barchasi murg'ak go'dak ruhiyatiga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Otasining bugun pulimiz ko'p degan gaplariga ishonmasdan qaraydi. Muallif bu tasvir orqali bolaga xos bo'lgan sezuvchanlikni ochib berishga harakat qiladi. Qizlarga xos bo'lgan mehribonlik, zakiylik va otasini ayash tuyg'usi esa quyidagi parchada ko'rinadi: *“Mehrinisa qiyma kabobni yaxshi ko'rgich edi. No'monjon qizchasini deyarli sudrab borib maydon yonidagi osmonga tutuni o'rab turgan oshxonadan to'rtta qiyma kabob olib berdi. Qizaloq:*

– *Qimmat bo'lsa olmang, – deyishga ulgurdi, xolos*

Xursandligi boismi, No'monjon chindan ham ochiqmagan edi. Shu sababli birdan bezovtalanib qolgan qizchasining qayta-qayta manziratlariga javoban:

– *Rahmat, qornim to'q, – dedi-da, choy ichib o'tiraverdi.*

Mehrinisa baribir ikkita kabobni dadasining oldiga surib qo'yarkan, odatiga ko'ra, shiringina jilmayib dadasini juda yaxshi ko'rib ketgan mahallari aytadigan gapini takrorlab:

– *Dadajonimdan aylanay, – deb qo'ydi*

Mehribon ota uchun bundan ortiq maqto'v bo'lishi mumkinmi axir...”²

Ota uchun eng katta baxt farzandining ko'zlaridagi mamnunlik, otasiga bo'lgan ishonchni his qilishdir. Biroq asar qahramoni bu pozitsiyani hikoya oxirigacha saqlab qola olmaydi. Hammasi ishxonadan berilgan chiptaning yo'qolishidan boshlanadi. “Odam degani ham shunaqa go'l bo'ladimi?!” degan o'y-xayol kechadi. Lekin aytish mumkinki, ana shu o'rinda ijodkor mahoratini ko'rishimiz mumkin. Shundoq ham qiziga amallab vaqt ajratib, sayrga olib chiqqan otaning qizi oldida noqulay holatga tushib qolishi asarda kutilmagan burilish yasaydi. Chipta yo'q. Yo'qolgan. Teatrqa kirmaylik desa, qiziga va'da berib qo'ygan. Kirish uchun chipta yo'q. Lekin qizi uchun, uning xursand bo'lishi uchun oxirgi chorani ham qo'llaydi. Ushbu jarayonni muallif mohirlik bilan tasvirlaydiki, teatr qorovuli va u yerdagi mushtumzo'rning xatti-harakatlari kitobxonni biroz o'ylantiradi.

² Yo'ldoshev A. Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. – T. Yangi asr avlodi, 2021. – B.71

Abduqayum Yo‘ldoshev asarlaridagi qahramonlar timsolida ruhiyatidagi xatolarni yengishga harakat qilayotgan shaxslarni ko‘rishimiz mumkin. Hikoyalarida shaxs uchun muhim bo‘lgan e‘tiqod masalalari ruhiy olamida kechayotgan gunohkorlik hissi No‘monjon misolida aks ettiriladi: “Chiqmagan jondan umid” qabilida kirish eshigi yoniga bordi. Semirib ketganidan qorni oldinga osilib tushgan, harsillab nafas olayotgan, yog‘ochi chidamaganidanmi, kattakon temir stulga yalpayib o‘tirib olgan tund basharali eshikbonning avzoyidan yaxshilik kutib bo‘lmasdi...

Shu o‘rinda hali zamon ko‘ngilni g‘ash qiluvchi nimadir bo‘lishini sezib turasiz. Dunyoda birovdan bir nimani iltimos qilishdan og‘iri yo‘q. Ayniqsa, hamsuhbating senga oshkora ishonqiramay, shubhalanib qaray boshlasa. Bunday vaziyatga tushgan kishigina No‘monjonning holatini qalban his etishi mumkin. ... Eshikbon pinak buzmasdi: *“Yo‘q. Senga o‘xshagan odamlarning gapiga ishonaversam, teatrni odam bosib, turishgayam joy qolmasdi”*. Dili og‘rigan No‘monjon qizi yaqinlashib qolganligi bois beixtiyor shivirlab so‘radi:

– Men qanaqa odam bo‘libman?

– Eshikbon bo‘ynini cho‘zdi:

– Qanaqa bo‘larding, yolg‘onchi odamsan-da. Bir yarim ming so‘mlik bilet uchun qizingni o‘rtaga qo‘yib qasam ichyapsan. Imonsiz... ”³

Teatr chiptasini yo‘qotib qo‘yib, “tund basharali” eshikbondan ichkariga chiptasiz kirishga ijozat so‘rayotgan ota mardlik, shijoat timsoli deya ko‘ruvchi qizchasi ko‘z o‘ngida “yolg‘onchi”, “qasamxo‘r”, “imonsiz” bo‘lib, uyatga qoldi. No‘monjon bir narsadan, qizining oldida uyalib qolishdan, uning o‘ziga nisbatan cheksiz hurmatini yo‘qotib qo‘yishdan cho‘chib yurardi. Mana shu dahshatli voqea yuz bergandi. Eshikbonning haqoratlari, zo‘ravonning kaltaklari, qizining oldida sharmandayi sharmisor bo‘lgani – bularning barisi uning sabr kosasini to‘ldirgandi. “O‘lganning ustiga tepgan” qilgandek bezbet chiptachining haqoratomuz gaplari No‘monjonni “bezori” qilganini tushunib yetasiz. Aksariyat hollarda, yaxshi insonlarning yomon odamlarga aylanishiga jamiyat, atrof-muhitning salbiy ta‘siri sababchi bo‘ladi. Bu aynan No‘monjondek kishilar timsolida namoyon bo‘ladi.

Asarni o‘qish jarayonida ikki jihat e‘tiborni yaqqol tortadi. Birinchisi unda tasvirlanayotgan voqelikning real hayotda sodir bo‘lganligi masalasi bo‘lsa, ikkinchisi esa ana shu reallikni badiiy asarda qay yo‘sinda yoritilishidir. Jumladan, A.Yo‘ldoshev ham asar mavzusini tanlar ekan, unda jahon ahamiyatiga molik bo‘lgan ijtimoiy muammoni emas, balki kundalik hayotda uchrab turadigan, biroq e‘tiborni u darajada torta bilmagan voqelikka o‘quvchining diqqatini qaratadi. Bir qarashda juda oddiy tuyulgan ijtimoiy voqelik aslida asrlar osha yechim topmasdan kelayotgan muammo ekanligi, uning ortida esa qahramonlarning fojiaiy qismati yotganligi va tarix o‘z-

³ Yo‘ldoshev A. Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. – T. Yangi asr avlodi, 2021. – B.71

o'zini takrorlagandek bu ham boshqa inson taqdirida qaytalanishi mumkinligi muammoning jiddiy ekanligini isbot etadi.

Masalaning ikkinchi tomoniga qaraydigan bo'lsak, bunda voqelik faqat ijtimoiylikni, kundalik turmushni yoritsa ham, real hayot bilan poetik reallik, tabiat bilan san'at, boshdan kechirilgan bilan tasvirlangan voqelikning farqi sezilib turadi. Asarda tasvirlanayotgan voqelik bilan real hayotdagi jarayon hamma vaqt ham bir xil tarzda bo'lmaydi.

Badiiy haqiqatning asosi hayotdir. Chunki yozuvchining ko'rgan-bilganlari va shaxsiy tajribasi, kechinma va taassurotlari badiiy asarning yuzaga kelishida asosiy omil sanaladi. Yozuvchi hamma vaqt hayotiy fakt hamda hodisalardan turtki olib, badiiy haqiqat kashfi tomon boradi. Ijodkorning mahorati aynan u tanlagan mavzuning ko'lamida emas, obyekt sifatida qaralayotgan voqelik, ya'ni muammoni yoritish, uni bayon etishda yaratgan badiiy uslubida namoyon bo'ladi. Bir qarashda oddiy tuyulgan holat zahirida ulkan fojia yotganligini ijodkorgina ko'ra oladi.

Xulosa qilib aytganda, Abduqayum Yo'ldoshev hikoyalarida davr va inson muammosi, davrning inson xarakteriga ta'siri va yozuvchining barqaror xarakterlar yaratish borasidagi mahorati ochib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev A. Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. – T.: Yangi asr avlodi, 2021.B.165.
2. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: Mumtoz so'z. 2010. – B. 89.
3. Қўшжонов М. Моҳият ва бадият. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 1977. – Б.232.
4. Назаров Б. Бу сеҳрли дунё. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1980. Б.234
5. Yo'ldoshev A. Alvado go'zallik. – Toshkent.: O'zbekiston. 2011. – B.362.
6. Ёўлдошев Қ. Ёник сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б.548.
7. Каримов Х. Истиклол даври адабиёти. –Т.: Yangi nashr, 2010. – Б.364.